

**RAUF PARFI IJODINING  
MA'NAViy-MA'RIFIY AHAMIYATI**  
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

**RAUF PARFI SONETLARI**

**Quvvatova Dilrabo Habibovna**

*BuxDU professori, filologiya fanlari  
doktori (DSc)*

*E-mail: [dilrabo68@mail.ru](mailto:dilrabo68@mail.ru)*

**Tashova Dilorom**

*BuxDU tadqiqotchisi*

***Annotatsiya.** Keyingi yillar o'zbek she'riyatida jahon adabiyoti ta'sirida qator janrlarda ijod qilindi. Xususan, Yevropa adabiyotida keng tarqalgan sonet janrida qator asarlar yaratildi. Istiqloq davri o'zbek she'riyatida sonet janri takomili Rauf Parfi nomi bilan bog'liq. Uning bu janrdagi izlanishlari XX asr o'zbek she'riyatida fenomenal hodisaga aylandi. Shoir jahon she'riyati yutuqlarini ijodiy o'zlashtirib, sonetning yuksak namunalari yaratara oldi. Maqolada shoirning Abdulla Qodiriy lirik siymosi yaratilgan "Ona Turkiston" sonetlar turkumi tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar.** Sonet, turkum, "sonetlar gulchambari", qofiyalanish tartibi, zamonaviy she'riyat, katren, terset.*

***Abstract.** In the following years, Uzbek poetry was created in a number of genres under the influence of world literature. In particular, a number of works were created in the sonnet genre, which is widespread in European literature. Rauf Parfi made a significant contribution to the improvement of the sonnet genre in Uzbek literature. His research in this genre became a phenomenal phenomenon in 20th century Uzbek poetry. The poet was able to creatively master the achievements of world poetry and create high examples of sonnets. Below, the series of sonnets "Mother Turkestan" created by the lyrical character of the poet Abdulla Qadiri is analyzed.*

***Key words.** Sonnet, series, "garland of sonnets", rhyming order, modern poetry, quatrain, tercet.*

Keyingi yillar o'zbek she'riyatida sonet janri yangicha qiyofa va mazmun kasb etdi. Yevropa adabiyotida keng tarqalgan sonet janri dastlab XIII asrda Italiyada shakllangan. Sonet italyanacha «sonare» so'zidan olingan bo'lib, «jaranglamoq» degan ma'noni bildiradi. Sonet o'n to'rt misradan tarkib topgan mukammal janr. "Sonetning an'anaviy-poetik belgilari: sonnet shakliga ko'ra 14 misradan tashkil topadi; she'r kompozitsiya jihatidan ikki qismdan iborat: birinchi ikki to'rtlik band bo'lib, u "katren" va ikkinchi ikki uchlik band bo'lib, u "terset" deb yuritiladi. Katren va tersetlar bir-biriga bog'liq bo'ladi. Sonetning qofiyalanish tartibi: a) mumtoz sonetlarning to'rtlik bandlari a-b-b-a, a-b-b-a; uchlik bandlar v-v-g, d-g-d tarzida qofiyalanishi ko'proq uchraydi. O'zbek shoirlari yaratgan sonetlarning qofiyalanish tartibi ranbarang" [1, 349]. Boshqa ko'rinishda qofiyalangan sonetlar ham uchraydi. Sonetning birinchi qismi ikki to'rtlik (ya'ni sakkiz misra), ikkinchi qismi ikki uchlik (ya'ni olti misra) bo'lishi lozim. Yuqorida aytib o'tilganidek, birinchi qism katren, ikkinchi qism terset deb

**RAUF PARFI IJODINING  
MA'NAViy-MA'RIFIY AHAMIYATI**  
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

ataladi. Sonetning dastlabki bandida fikr rivojlanib borishi, ikkinchi bandda esa bu fikr muayyan xulosa bilan yakunlanishi kerak. O'zbek she'riyatiga sonet XX asr boshlarida kirib keldi. Uning ilk namunalarini Usmon Nosir ijodida uchratamiz. Keyinchalik bu janrda Barot Boyqobilov, Rauf Parfi, Ergash Muhammad, Mirpo'lat Mirzo singari shoirlar ham qalam tebratdilar. B.Boyqobilov va E.Muhammad sonetlar gulchambarini ham yozganlar. B.Boyqobilov va M.Mirzoning sonetlari asosan uch to'rtlik va bir baytdan iborat o'n to'rt satrli she'rlardir. X.Tojiyev, O.Xayrullayevalarning yozishicha: "G'arbona an'analarning tadrijiy taraqqiyoti natijasida vujudga kelgan ushbu janr badiiy tajribalari o'zbek milliy soneti shakllanishiga omil bo'lganligini ilg'ash qiyin emas" [2, 141]. Zamonaviy o'zbek she'riyatida sonet janri takomili ulug' shoir Rauf Parfi nomi bilan bog'liq. R.Parfida esa ikki qismli shakl buzilmaydi, lekin qofiyalar erkin. Uning bu janrdagi izlanishlari XX asr o'zbek she'riyatida fenomenal hodisaga aylandi. Shoir jahon she'riyati yutuqlarini ijodiy o'zlashtirib, sonetning yuksak namunalarini yarata oldi. Mulohazalarimizni shoirning Abdulla Qodiriy lirik siymosi yaratilgan "Ona Turkiston" sonetlar turkumi misolida asoslashga harakat qilamiz. Bu turkum A.Qodiriy haqida haq so'zni aytish mushkul bo'lgan bir davrda – 1967-yilda yozilgan. Uch sonetni birlashtirgan yoniq satrlar Abdulla Qodiriy monologi yanglig' jaranglaydi. Ayni zamonda unda shoir qalbi tubida yashirinib yotgan dardlar ham qalamga olingan. Birinchi sonet quyidagicha boshlanadi:

*Xotiramning qa'ri-qa'rida tarix,  
Doim so'zlab turar ezgin hikoya.  
Tutqun qush singari qolurman qarib,  
Ruhimda bulutlar tashlaydir soya [3, 254].*

Xalqimizning uzoq va yaqin o'tmishida kechgan voqeliklar, shoir ta'biricha, ezgin hikoyadir. Shu bilan birga, bunda zukko kitobxon ulug' adibning "O'tkan kunlar" tarixiy romaniga ham ishorani sezishi qiyin emas. Lirik qahramon o'zini "tutqun qushga" qiyoslayapti. Haqiqatan, tutqun qush qatag'on muhitida ezilgan, ozor chekkan Abdulla Qodiriydir. Shu tarzda shoir xayolidan chekingan "olisda miltirab turgan sha'm, ko'hna hasratning mash'um yarasi" haqida fikr yurita boshlaydi. Bu ifodada metaforik mazmun mavjud. Sababi, "olisda miltirab turgan sha'm" Qodiriyning orzu-umidlari ifodasi, "ko'hna hasratning mash'um yarasi" esa qatag'on davrini aks ettirgan.

*Kishanband qilinar qo'llarim go'yo,  
Tuproqqa qorisha boshlaydi tanim,*

**RAUF PARFI IJODINING  
MA'NAViy-MA'RIFIY AHAMIYATI**  
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

*Shu qadar yuragi tormidir dunyo [3, 255].*

Istiqlol yillarida qatag'onga uchragan ulug' adib va shoirlar haqidagi haqiqatlar baralla aytila boshlandi. Adabiyotshunos U.Normatovning "Qodiriyning so'nggi iltijosi" nomli maqolasi adib o'limi bilan bog'liq tafsilotlarni keng yoritishi bilan ahamiyatlidir. Bunda olim A.Qodiriyning o'g'li Mas'ud aka xotiralariga tayanadi. Xotiralarning guvohlik berishicha, bu mudhish o'lim voqeasiga bog'bon, yozuvchining do'sti Mirolim Mirkomilov shohid bo'lgan. Uning Bo'zsuv daryosi bo'yida bog'i bo'lgan. A.Qodiriy otilgan 1937-yilning 4-oktyabr kechasi u shu joyda bo'lgan va bog' ortidagi jarlikda tunda sodir etilayotgan notinchliklar asnosida qulog'iga tanish ovoz chalingan. Bu – Qodiriyning ovozi edi. Mirolim ota tatar komandiri va A.Qodiriy suhbatini eshitadi. Ulug' adib o'limi oldidan komandirning tatar, ya'ni musulmonligini bilib, undan suv so'ragan va ikki raka'at namoz o'qib olishini iltimos qilib so'ragan. Komandir bunga rozi bo'lgan va shundan so'ng hukm ado etilgan [4]. Yuqoridagi satrlarda ham shu tarixiy voqelikka ishoralar mavjud. Binobarin, qo'llari kishanband qilingan, tani tuproqqa qorishgan A.Qodiriy tasvirida shoir anglagan achchiq haqiqat aks etgan. Qolaversa, "O'zi yuraginga jo bo'ldi, ammo Nechun sig'dirmadi, nechun Vatanim" tarzidagi hayqiriqda chin vatanparvar inson siymosi aks etib turibdi. Ikkinchi sonet ham yuqoridagi satrlarning mantiqiy davomidir. A.Qodiriy ichini kemirgan ulkan dard yurtni ozod ko'rish istagi edi:

*Ko'ringiz tarixni. Ko'z oldim parda,  
Qo'limdan uchmoqda bu yer, bu Vatan...  
Oshno tutinardim po'lat xanjarga...  
Jang maydoni sari otilardim man [3, 255].*

Zero, yaqin tarixdagi voqeliklar, yuz bergan turli xunrezliklarda A.Qodiriyga o'xshagan xalqning asl farzandlarining erk yo'lidagi shonli kurashlari, ayanchli qismati aks etgan. Haqiqatan, adib Vatanni himoya qilish uchun qo'liga po'lat xanjar tutishga tayyor fidoyi. Bunda "keskir tosh" ham A.Qodiriyning ifoda etmoqda.

Uchinchi sonet xulosaviy mazmunga ega:

*Umr deganlari o'tmakda shoshqin,  
Tilla barglarini elab yo'limga.  
Sening manguliging beradi taskin,  
Erta uzilguvchi mening umrimga [3, 256].*

**RAUF PARFI IJODINING  
MA'NAVIIY-MA'RIFIY AHAMIYATI**  
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

Inson umri shoshqin daryoga qiyos. Tilla barg – shoirning betakror metaforasi. Unda hayot kuziga ishora mavjud. Vatanning abadiyligi, bezavolligi umri “erta uzilayotgan” adibga taskin beradi.

*O‘, Ona Turkiston, kuylayman yonib,  
Dunyo jur‘atini berding qo‘limga.  
Men endi angladim Turkiy dunyoni  
Mana, men tayyorman endi o‘limga [3, 256].*

Bunda Ona Turkiston uchun qalbida katta jur‘atni joylab, o‘limga ham tik borgan adib siymosi aks etib turibdi. Vatan shunday yuksak tuyg‘uki, uni til bilan kuylashning o‘zi yetarli emas. Shu bois adib uni "kuyib kuylamak"ni istaydi.

Yuqorida tahlil etganimiz sonetlarda Abdulla Qodiriyning yurt uchun yongan qalb manzaralari badiiy ifoda etilgan. Ayni zamonda ulug‘ adib yuragida armon bo‘lgan so‘ngsiz dardlar va og‘riqlar R.Parfining shoir qalbini larzaga soladi, uning tuyg‘ularini junbushga keltiradi. Ta’kidlash kerakki, R.Parfi qo‘llagan har bir metafora va ramz A.Qodiriy lirik siymosini yorqin ifodalashga xizmat qilgan.

“O‘zbek she’riyati o‘z taraqqiyot yo‘lida jahon adabiyotidan nimalarnidir ijodiy o‘zlashtirishga uringan bo‘lsa bordir (hamkorlik, o‘zaro o‘rganish, ijodiy rivojlanish tabiiy jarayon, ammo buni taqlidchilikka aylantirmaslik lozim), lekin mohiyat e’tibori bilan bugungi yangilanayotgan o‘zbek she’riyati suv ichayotgan buloq bu – hayotning o‘zi. Zero, chinakam iste’dodli shoir yozayotgan she’ri ohangini qalbiga quloq tutib topadi. Qalb esa davrdagi o‘zgarishlarni o‘ta noziklik bilan ilg‘ab boradigan barometr” [5]. Zero, sonetlar jahon adabiyoti ta’sirida yaratilsa ham ularda milliy ruh ufurib turadi. “O‘n beshta sonetdan tarkib topgan she’riy majmua «sonetlar gulchambari» deb yuritiladi. Bunda birinchi sonet oxirgi misrasidan ikkinchi, ikkinchi sonet so‘nggi misrasidan uchinchi sonet boshlanadi va hokazo tarzda davom etadi. Sonetlar guldastasining oxirgi – o‘n beshinchi soneti magistral deb nomlanadi. U o‘n to‘rt sonetning birinchi misralaridan tashkil topgan bo‘ladi” [6, 100].

Rauf Parfining sonetlar turkumi “sonetlar gulchambari”dan farqli ravishda 3 ta sonetdan tashkil topgan bo‘lib, turkum hisoblanadi. Sonet jahon adabiyotida rivoj topib, milliy adabiyotlarda ham yuz ko‘rsatayotgan mustaqil janrdir. Shu jihatdan R.Parfining ijodiy izlanishlarini sonetni mukammallashtirish, kompozitsion-strukturaviy boyitish yo‘lidagi yangi badiiy shakl izlanishlari deyish mumkin.

**RAUF PARFI IJODINING  
MA'NAVİY-MA'RIFIY AHAMIYATI**  
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002.
2. Тожиев Х., Файзуллаева О. Ўзбек адабиётида сонет такомилли. “Шарқ юлдузи”, 2016 йил, 4-сон. Б.140-144
3. Парфи Р. Сакина. – Т.: Muharrir, 2013. – Б.255.
4. Норматов У. Қодирийнинг сўнги илтижоси. // “Sharq yulduzi” 2013 yil. №1.
5. Hamdam U. Erkin badiiy tafakkur va bugungi o‘zbek she’riyati // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2013, № 48.
6. Tashmuxeimedova L. Adabiyot tarixi va nazariyasi. –Т.: Noshir, 2019. – В.100.
7. Западноевропейский сонет (XIII-XVII века): Поэтическая анталогия / Сост. Чамеев А.А. и др.//Л.: Изд-во Ленинградского университета. – 1988.